



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-sentabr

463-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-315-son qarori ijrosi haqida”gi 422-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-315-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-sentyabrdagi 422-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-315-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-sentyabrdagi 422-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-315-son qarori bilan:
2024-yil 18-aprel kuni Dushanbe shahrida imzolangan;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida 2018-yil 9-martda imzolangan xalqaro avtomobil qatnovi to‘g‘risidagi bitimga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi bayonnomaga;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida 2018-yil 9-martda imzolangan xalqaro havo qatnovi to‘g‘risidagi bitimga o‘zgartirish kiritish haqidagi bayonnomaga tasdiqlanganligi;

Transport vazirligi ushbu xalqaro shartnomalarni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi ushbu xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda ularni amalga oshirishga mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida Tojikiston tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnomalar kuchga kirgandan keyin belgilangan tartibda ularning qoidalari amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta‘minlashi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov